

## ERKIN IQTISODIY ZONALARDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

**Amirov Abdulhay G'ayrat o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

"Iqtisodiyot" (tarmoqlar va sohalar) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Zaripov Asilbek Jasur o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

"Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish masalalari bayon etilgan. Hududlarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, tahlil natijalariga ko'ra, mazkur zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada faollashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, erkin iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, infratuzilma tarmoqlari, investitsion faollik, texnoparklar, kichik sanoat zonalari, ilmiy texnologiya zonalari.

### Kirish

Keyingi yillarda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish tendensiyasining oshib borishi, u erda tashqi savdo va investitsiya munosabatlarining tobora kengaytirib borilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Erkin iqtisodiy zona mamlakatning alohida soliq, bojxona va investitsiya siyosatini olib boradigan zonalar bo'lib, investitsiya jozibadorligini, salohiyatini oshirish va aholi bandligini maksimal darajada ta'minlash maqsadida tashkil etiladi. Yurtimizda ham tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalar mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarish infratuzilmasini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar evaziga takomillashtirish maqsadida tashkil etilyapti. Natijada mazkur hududlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hamda zamonaviy texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi oqibatida import o'rnini bosuvchi eksportga qaratilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining kengayishini ta'minlamoqda.

Bu borada Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida: "Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kerak. Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarda biznes sub'yektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va

preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim. Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak.”[1]-deb ta’kidlab, erkin iqtisodiy zonalarning muhimligini e’tirof etadilar.

Mamlakatimiz rivojlanish strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi-bu mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish hisoblanadi. Bu iqtisodiyotni erkinlashtirishni har tomonlama ishlab chiqilgan qonuniy xo‘jalik tizimiga integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda iqtisodiy erkinlik samarali o‘tish davrining asosiy negizini tashkil etadi. Ayniqsa xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi bir tomondan respublikamizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy tasir etsa, ikkinchi tomondan xalqaro mehnat taqsimotida alohida o‘rin tutadi. Bunday hamkorlik asosida jahon iqtisodiyotiga xos bo‘lgan baynalminallashuv jarayonini yanada oshiradi. Bu munosabatning asosida jahon iqtisodiyoti jarayonlari globallashtirishning asosiy mezonini tashkil etadi. Mustahkam barqaror, ishlab chiqarish, savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida shakllanishi va rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya singari mamlakatlar tajribasida namoyon bo‘lgani singari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga yuksak innovatsiyalarni tadbiriq etilishi samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Bundan kelib chiqadiki, erkin iqtisodiy zonalarda ishtirokchilarga keng ko‘lamli qulay sharoitlar yaratish maqsadida ma‘muriy tartiblar hamda ushbu faoliyatga ruxsat berish qoidalarini yanada soddalashtirish, investitsiya jozibadorligini oshirish bilan birga investitsiyaning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[2]. O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni kirib kelishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilgan. Erkin iqtisodiy hududlardagi tadbirkorlik va tashqi savdoning rag‘batlantirilishiga alohida etibor qaratilayotganligi yurtimizni dunyo bozorida tobora munosib o‘rin egallashini ta‘minlash imkoniyatlarini oshirmoqda.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish vositalaridan biri hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qayd etish kerakki, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 21 ta erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, ulardan 19 tasi sanoat, 1 tasi qishloq xo‘jaligi va 1 tasi turizm sohasiga ixtisoslashgan. O‘tgan yillar ko‘rsatkichi bo‘yicha olib qaraganimizda, 2008-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda erkin iqtisodiy zonalar hududlarida 2,4 milliard dollarlik jami 448 ta loyihalar amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy summadan 764,6 mln dollarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2021 yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashriflari davomida Boysun, Sariosiyo, Sherobod tumanlarini qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, Qiziriqni engil sanoat, Oltinsoyni oziq-ovqat, Angorni charm, Bandixon va Muzrabot tumanlarini mahalliy sanoatda ixtisoslashtirib klasterlar tashkil etish zarurligini ta’kidladilar. Ya’ni, Sariosiyoda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi investitsion industrial zonasi tashkil etilishi bo‘yicha, Oltinsoy, Uzun, Bandixon, Denov, Jarqurg‘on, Muzrabot, Termiz va Sariosiyo tumanlarida zaytun plantatsiyalarini tashkil etish, Sherobod, Muzrabot va Qiziriqda anorzorlar barpo etilishi bo‘yicha keng ko‘lamli vazifalar belgilanganligi va har bir hududning o‘ziga xos salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda

amalg oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Natijada qanchadan-qanchaish o'rinlari, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda hududning iqtisodiy salohiyatini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etganligini ko'rishimiz mumkin.

Fikrlarimizni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz:

**2020 yil yakuniga qadar faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalarda sohalar bo'yicha loyihalarning taqsimlanishi. (1-jadval)[3]**

t\r	Jalb etilgan sohalar	Bajarilganish hajmi (mln dol.)	Loyihabsoni
1.	Zamonaviy issiqxonalar qurish	204,7	62ta
2.	Qurilish materiallarini ishlab chiqarish	140	18 ta
3.	Kimyo va neft-kimyo sanoati	50,6	13 ta
4.	Oziq-ovqat sanoati	15,9	10 ta
5.	To'qimachilik sanoati	20,1	8 ta
6.	Mashinasozlik	6	2 ta
7.	Charm-poayabzal sanoati	14,9	5 ta
8.	Elektrotexnika sanoati	13,7	3 ta
9.	Farmatsevtika sanoati	56,3	6 ta
10.	Mebel va qog'oz ishlab chiqarish	1,1	1 ta
	<b>Jami:</b>	<b>523,3</b>	<b>128 ta</b>

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jalb etilgan sohalar bo'yicha yuqori ko'rsatkich zamonaviy issiqxonalar qurishga 204,7 mln.dollarlik 62 ta loyiha jalb etilgan bo'lsa, eng kam soha esa mebel va qog'oz ishlab chiqarishga 1,1 mln dollarlik 1 ta loyiha amalg oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rib chiqilayotgan davrda erkin iqtisodiy zona ishtirokchi korxonalar 11,9 trln. so'mlik 538 turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarib, 257,6 mln dollarlik mahsulotlarni eksport qildilar, bu esa pandemiyaning salbiy iqtisodiy oqibatlariga qaramay, 2019 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 145 foizga oshgan. Shuningdek, 186 ta yangi korxonalar erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini oldi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, hududlar iqtisodiy imkoniyatlaridan keng ko'lamli foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga erishishda iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi PF-4059-sonli Farmoniga asosan, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida, Navoiy viloyatining Karmana tumanida dastlab "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi.[4]. "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida jami loyihalarga kiritilgan investitsiyalar ulushi bo'yicha etakchilik qilayotgan mamlakatlarga Hindiston (29,%), Janubiy Koreya (25%), XXR(8%), Polsha(12%) kabilarni kiritish mumkin. Bugungi kunda ushbu xorijiy mamlakatlar kapitali ishtirokida ko'plab sanoat korxonalari tashkil etilgan. Ularga ushbu mamlakatlardagi yuqori texnologiyalarni kiritishga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Shuningdek, investitsiyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi jihatlardan yana biri turizm sohasini rivojlantirishdir. Toshkent viloyatida turizm sohasi rivojlanishiga kiritilayotgan investitsiyalar ham o'zining ijobiy samarasini berayotganligini quyidagi ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin.

**Toshkent viloyatida 2017-2021-yillarda turizm sohasini rivojlantirish asosiy ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari. (2-jadval) [5]**

Ko'rsatkichlar	Yillar bo'yicha o'sish sur'atlari(%)					
	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2021 yilda 2017yilga nisbatan o'sish(marta)
<b>Turizm xizmatlari jami</b>	<b>117,8</b>	<b>118,3</b>	<b>118,5</b>	<b>118,7</b>	<b>118,9</b>	<b>2,7</b>
Shu jumladan:						
Turistik xizmatlar	129,2	129,8	130,2	130,5	130,7	4,8
Mehmonxona xizmatlari	117,4	117,5	117,7	117,8	118,0	2,6
Sayyohlar soni	115,4	115,8	116,3	116,5	116,8	2,4
mahalliy	114,5	114,7	114,9	115,3	115,5	2,3
xorijiy	130,3	130,6	131,0	131,5	131,8	5,0
<b>Turizm eksporti jami</b>	<b>122,4</b>	<b>122,6</b>	<b>123,1</b>	<b>123,5</b>	<b>124,0</b>	<b>3,5</b>

Toshkent viloyatida 2017-2021-yillarga mo'ljallangan viloyatda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni tashkil etish to'g'risidagi dastur doirasida 288,7mlrd.so'mlik investitsiyalarni o'zlashtirish nazarda tutilgan. Bu kelgusida viloyatda turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan,Toshkent viloyatida 2017-2021-yillarda turizm sohasini rivojlantirishdagi asosiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlari tahlili turizm xizmatlari 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 2,7 marta, turizm xizmatlari eksporti 3,5 martaga o'sishi rejalashtirilgan.Umuman olganda, mamlakatimiz hududlari kompleks iqtisodiy rivojlanish orqali aholi bandligi va daromadligini ta'siri hamda turmush farovonligini oshirish masalasida strategik yo'nalish sifatida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda izchili sohotlar amalga oshirilayotganligini namoyon etmoqda.

#### **Xulosa va takliflar**

Yakuniy so'z sifatida ta'kidlash kerakki,har qanday hududda ham birinchi qo'yiladigan talab-siyosiy barqarorlik, etarl iinfratuzilmaning ta'minlanganligi bo'lib,ushbu jarayonlar investorlar siyosiy barqarorligining belgilovchi omil deb baholaydilar. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini butun xo'jalik huquqiy masalalarni tartibga solish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish;
- transport kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish;
- mavjud sanoat bazasi;
- erkin iqtisodiy zonalar ma'muriy boshqaruvining samarali tuzilmasini yaratish lozimdir.

Erkin iqtisodiy zonalar borasidagi tajribalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

*Birinchi*dan,erkin iqtisodiy zona-mahalliy mineral-xom ashyo resurslarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etuvchi maxsus hududdir-deb yuritish maqsadga muvofiqdir.Bizningcha iqtisodiy terminlarning boyib borishi shu sohada ilmiylikning o'sishidan dalolat beradi.

*Ikkinchi*dan,erkin iqtisodiy zonalarni aniq maqsadga qaratilgan,yani ixtisosligiga ajratish lozimdir.

Hamma zonalarni erkin iqtisodiy zona deb emas, masalan, turizm erkin zonasi, sanoat zonasi, sport zonasi va boshqalar.

*Uchunchidan*, jahon bozorida erkin iqtisodiy zonani tezroq va shaffof tarzda tanitish uchun yuqori saviyadagi erkin iqtisodiy zonalar siyosatini takomillashtirish lozimdir.

*To'rtinchidan*, har bir erkin iqtisodiy zonaning o'z konsepsiyalari bo'lishi va uni xalqaro andozalarga mos ravishda investorlarga sodda va qulay tarzda etkazish choralarini amalga oshirilishi lozim degan fikrdamiz.

Umuman olganda, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishning xorij tajribasini o'rganish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etib borilishi, har bir hududdagi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, aholi bandligining ta'minlanishi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish singari ijobiy samarani namoyon etadi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integratsiyalashuviga, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirishning o'ziga xos mexanizmini joriy qilishda ham muhim hisoblanadi. Eng muhimi esa, erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil. 29 dekabr.
2. Voxidova M.X. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning institutsional asoslari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, №3, iyun, 2020 yil.
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments-O'zbekiston> Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi sayti.
4. Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar" O'quv qo'llanma-T.: "Moliya" 2010. -324 b.
5. O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma tahliliy material.-T.: "Sano-standart" -2017.265-bet.
6. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ (pp. 376-378).
7. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
8. Хуррамов, А. Ф. Туробов Шерзод Алишеревич, & Мингбоев Шухрат Мингбой Ўғли (2018). Уй хўжалигида инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг иқтисодий механизми. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 16-20.
9. Хуррамов, А. Ф., Маматов, А. А., Мингбоев, Ш. М. Ў., & Туробов, Ш. А. (2018). Иқтисодий ресурсларнинг доиравий айланиш моделида уй хўжалигининг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (9), 2-6.
10. Тухтабаев, Ж. Ш. (2020). Пандемия шароитида деҳқон хўжалиги ва томорқа ер эгалари фаолиятининг аҳоли турмуш даражасини оширишдаги роли. *Молия ва банк иши*

- электрон илмий журнал 2020 йил, № 2 сон. март-апрел. 318-323 б. Молия ва банк иши электрон илмий журнал, (2), 318.
11. Toxirovna, S. G. (2021). Farmers-Food Sustainability Services. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 899-904.
  12. Alikulov, A. T., & O'rinov, K. (2022). O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 690-695.
  13. Alikulov, Azamat Tugunovich, & O'rinov, Komiljon (2022). O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 690-695.
  14. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
  15. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
  16. Усанов, А., & Рахмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
  17. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
  18. Yakubova, S., & Qosimov, J. (2022). MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY ASOSI. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 5(7).
  19. Yakubova, S. S., Egamberdiyeva, S. R., & Boyqobilov, F. S. (2022). TA'LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQRISH HAMKORLIGI SALOHİYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 211-216.
  20. Alisherovich, T. S., & Ugli, N. B. B. (2023). Internal Control in Banks. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(3), 34-39.
  21. Alisherovich, T. S. (2023). IMPROVING ACCOUNTING AND ITS MAINTENANCE IN BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 31, 15-20.
  22. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Эффективность производства органических продуктов в сельском хозяйстве. *Economics*, (2 (45)), 19-22.
  23. Hakimovich, B. A., & Khudayberdiyevna, D. M. (2020). Advantages of introducing agrocluster in agriculture. *International Journal on Orange Technologies*, 2(11), 37-40.
  24. Farmanov, J. Z., Rimboeva, N. X. qizi, & Rimbayeva, G. X. qizi. (2023). QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(1), 231–236. Retrieved from
  25. Farmanov J. UKRAINIAN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE BEEKEEPING NETWORK IN OUR COUNTRY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 09. – С. 66-69.
  26. Khakimovich, B. K. (2022). Using of Economic Analysis Methods in the Audit of Private Capital. *Open Access Repository*, 8(04), 62-66.
  27. Hakimovich, B. K. (2023). IMPROVEMENT OF PRIVATE CAPITAL AUDIT IN ECONOMIC SUBJECTS ACCORDING TO INTERNATIONAL AUDIT STANDARDS. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 34-40.

28. Бутунов, Ш. Б. (2020). Совершенствование учета финансовых результатов на предприятиях. Логистика и экономика". Научный электронный журнал, (4).
29. Бутунов, Ш. Б. (2021). THE IMPACT OF MACROECONOMIC AND BANKING FACTORS ON THE LEVEL OF NON-PERFORMING LOANS: RESULTS FOR THE CIS COUNTRIES. *Economics*, (3 (50)), 33-42.
30. Музаффарова, К. З., & Эгамбердиева, С. Р. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИНГ РОЛИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(1).
31. Zoyirovna, M. K., & O'gli, A. N. R. (2022). STRONG DIRECTIONS FOR IMPROVING ECONOMIC CAPITAL IN THE TERRITORY OF KASHKADARYA REGION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 243-247.
32. Rayimovna, E. S., & Normamatovich, X. O. (2021). Kapital Qo „Yilmalar Hisobini Takomillashtirish. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 290-296.
33. Kholmurodov, O. (2022). CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 432-436.
34. Ravshanov, A. (2022). Objective Accounting Issues in the Enterprise. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 83-87.
35. Равшанов, А. Б. (2022). БИОЛОГИК АКТИВ ТУШУНЧАСИ ВА УЛАРНИ ТЎҒРИ ТАСНИФЛАШ МАСАЛАРИ. ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH ТАҲЛИЛИ ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(7), 31-36.
36. EGAMBERDIYEVNA, A. N., MURTAZAYEVNA, N. Y., & SABIROVICH, E. A. MODERN PRACTICE OF REGULATING PROCESSES OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS AND APPROACHES TO ITS IMPROVEMENT.
37. Azimova, N. E. (2022). INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 178-182.
38. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
39. Равшанов А. Д. Абдисалом Дусиёрович, Хасанов Шамсиддин Хафизович, & Алимханова Нигора Алимхановна (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 9-14.
40. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
41. Жумаева, Г. Ж. (2023). НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. *SCHOLAR*, 1(8), 37-42.
42. Jumayeva, G. J. R., & qizi Sultonova, M. O. (2022, December). FERMER XO 'JALIKLARINING MOLIVAVIY NATIJALARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI HISOBLASH YO 'LLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 18, pp. 127-130)*.